HSR (LONDON),
HOUGHTON STREET REVIEW JOURNAL
ISSN: 2058-5519|Impact factor-15.9
http://houghtonstreetreview.com/index.php/hsr

LINGUISTIC AND PRAGMATIC FEATURES OF ORAL SPEECH

Mahmudova Shohida Jamolovna
Turon universiteti magistranti
Qarshi, O'zbekiston
E-mail: shohida.mahmudova071989@gmail.com

Abstract: This article analyzes the linguistic and pragmatic features of spoken English. The phonetic, lexical, grammatical, and discursive aspects of spoken English are highlighted, and its pragmatic functions in the communication process are revealed. Also, the role of the communicative purpose of the speech participants, context, speech acts, and pragmatic competence in oral communication is scientifically substantiated. The results of the study are of significant theoretical and practical importance for the methodology of teaching English and the field of applied linguistics.

Keywords: oral speech, linguistic features, pragmatics, discourse, communicative competence, speech acts, English language, communication.

OG'ZAKI NUTQNING LINGVISTIK VA PRAGMATIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: Mazkur maqolada ingliz tilidagi og'zaki nutqning lingvistik va pragmatik xususiyatlari tahlil qilinadi. Og'zaki nutqning fonetik, leksik, grammatik hamda diskursiv jihatlari yoritilib, uning muloqot jarayonidagi pragmatik funksiyalari ochib beriladi. Shuningdek, nutq ishtirokchilarining kommunikativ maqsadi, kontekst, nutq aktlari va pragmatik kompetensiyaning og'zaki muloqotdagi o'rni ilmiy jihatdan asoslanadi. Tadqiqot natijalari ingliz tilini o'qitish metodikasi hamda amaliy lingvistika sohalari uchun muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: og'zaki nutq, lingvistik xususiyatlar, pragmatika, diskurs, kommunikativ kompetensiya, nutq aktlari, ingliz tili, muloqot.

ЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ И ПРАГМАТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ УСТНОЙ РЕЧИ

Аннотация: В данной статье рассматриваются лингвистические и прагматические особенности устной речи в английском языке. Анализируются фонетические, лексические, грамматические и дискурсивные характеристики устной коммуникации. Особое внимание уделяется прагматическим аспектам общения, включая речевые акты, коммуникативные намерения говорящих, контекст и прагматическую компетенцию. Результаты исследования могут быть использованы в области методики преподавания английского языка и прикладной лингвистики.

Ключевые слова: устная речь, прагматика, дискурс, коммуникативная компетенция, речевые акты, английский язык.

Xalqaro hamkorlikning kengayishi jarayonida ingliz tili xalqaro muloqot vositasi sifatida alohida ahamiyat kasb etmoqda. Tilning amalda qo'llanishida og'zaki nutq asosiy kommunikativ vositalardan biridir. Ko'pgina tadqiqotlarda og'zaki nutqning umri insoniyat umri bilan barobardir deyiladi. Og'zaki nutqning taraqqiy etgan holati xalq og'zaki ijodlari asari namunalariga aylangan. Og'zaki nutq faqatgina lingvistik birliklarning amalda qo'llanilishi emas, balki muloqot qatnashchilarining

HSR (LONDON),
HOUGHTON STREET REVIEW JOURNAL
ISSN: 2058-5519|Impact factor-15.9
http://houghtonstreetreview.com/index.php/hsr

kommunikativ orzulari, ijtimoiy munosabatlari va pragmatik maqsad va vazifalarini ham aks ettiradi. Shu tufayli zamonaviy tilshunoslikda og‘zaki nutqning lingvistik va pragmatik xususiyatlarini o‘zlashtirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Og‘zaki nutq yozma nutqdan spontan(oldindan rejalashtirilmagan)ligi, situativ(vaziyatga bog‘liq)ligi va interaktivligi bilan farqlanadi. Muloqot jarayonida so‘zlovchi va tinglovchi o‘rtasida doimiy axborot almashinuvi yuz beradi, natijada esa til birliklarining o‘ziga xos qo‘llanilishiga sabab bo‘ladi.

Og‘zaki nutq yozma nutqdan quyidagi xususiyatlari bilan farqlanadi:

1. Og‘zaki nutqda jonli til qanaqa bo‘lsa, shundaycha namoyon bo‘ladi. Yozma nutqda esa til aloqa-munosabatning eng muhim vositasi sifatida standartlashtiriladi. To’la-to’kis namoyon bo‘la olmaydi.

2. Og‘zaki nutqda kishilar o‘z fikr-mulohazalarini, sezgi va ruhiy kechinmalarini ma’lum ma’noda nisbatan ko‘proq chiqarib berib, bir-birlariga ta’sir ko‘rsatadilar. Shunday paytda tilning hissiy ta’sir vazifasi yaqqol seziladi.Tilning muayyan ma’lumotni ifoda etib, tinglovchiga ta’sir ko‘rsatishi uning hissiy-ta’siriy vazifasi hisoblanadi. Og‘zaki nutq xabar, sezgi va hayajon, xoxish ifoda qilish hissiy ta’sir vazifasining asosini tashkil etadi. Bu jarayonda so‘zlovchining ko‘z va mushaklari, mimika katta rol o‘ynaydi.

3. Nutqning ma’lumotlarni to‘plash vazifasi. Nutq aloqa vositasi, hissiy ta’sir ifodasi bo‘lib qolmay, to‘plash vazifasini ham bajaradi. Yozma nutq orqali to‘plangan bilim va tajribalarni avloddan avlodga yetkazamiz. Bunda nutqning ikki (og‘zaki va yozma) ko‘rinishidan foydalaniladi. Nutqning og‘zaki ko‘rinishi inson nutqining paydo bo‘lishi davridan boshlab aloqa-munosabatda keng foydalanib kelinmoqda. Yozma shakli esa yozuvning yuzaga kelishi bilan bog‘liq bo‘lib, tilning ma’lumot to‘plash vazifasida muhim o‘rin egallab kelmoqda.

Tadqiqot davomida tavsifiy, qiyosiy-tahliliy va diskursiv tahlil metodlaridan foydalanildi. Ingliz tilidagi og‘zaki muloqot namunalari lingvistik va pragmatik jihatdan tahlil qilinib, mavjud ilmiy adabiyotlar asosida umumlashtirildi.

Og‘zaki nutqning eng muhim belgilaridan biri uning fonetik tabiati hisoblanadi. Ingliz tilidagi og‘zaki nutqda quyidagi fonetik hodisalar keng uchraydi: intonatsiya, ritm, urg‘u, reduksiya, assimilyatsiya, eliziya. Masalan: I am going to → I'm gonna, Want to → wanna. Bunday qisqarishlar og‘zaki nutqning tabiiy va tezkor xarakterini ta’minlaydi.

Og‘zaki nutqda kundalik muloqotga xos bo‘lgan so‘z va iboralar faol qo‘llaniladi. Ular quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- ✓ So‘zlashuv uslubiga oid birliklar;
- ✓ Slenglar;
- ✓ Frazeologik birliklar;
- ✓ Diskurs markerlari.

Bunga quyidagicha misollar keltiramiz ya’ni, Well..., You know..., I mean..., Actually..., Sort of... va shu kabilar.

Ushbu birliklar nutqning tabiiyligini oshiradi va muloqotni boshqarishga xizmat qiladi.

Og‘zaki nutqda grammatik strukturalar yozma nutqqa nisbatan soddaroq bo‘ladi.

Quyidagi holatlar kuzatiladi: To‘liq bo‘lmagan gaplar, takrorlashlar, o‘z-o‘zini tuzatish, ellipsis.

Bunga quyidagicha misol keltiramiz:

— Coming tonight?

— Yes, probably.

Bu yerda grammatik jihatdan to‘liq gap ishlatilmagan bo‘lsa-da, kommunikativ ma’no to‘liq anglashiladi.

HSR (LONDON),
HOUGHTON STREET REVIEW JOURNAL
ISSN: 2058-5519|Impact factor-15.9
http://houghtonstreetreview.com/index.php/hsr

Og‘zaki muloqot interaktiv xarakterga ega bo‘lib, nutqning uzluksiz rivojlanishini ta’minlaydigan diskursiv vositalar bilan tavsiflanadi.

Pragmatika til birliklarining real kommunikativ vaziyatda qanday qo‘llanilishini o‘rganadi. Og‘zaki nutq pragmatik jihatdan bir qator xususiyatlarga ega.

Nutq aktlari nazariyasiga ko‘ra, har bir gap ma’lum kommunikativ vazifani bajaradi.

Asosiy nutq aktlari: Assertivlar (xabar berish), direktivlar (buyruq, iltimos), komissivlar (va’da berish), ekspressivlar (his-tuyg‘uni ifodalash), deklarativlar (rasmiy o‘zgartirishlar).

Misol tariqasida shu gapni keltiramiz ya’ni, "Could you open the window?".

Grammatik jihatdan savol bo‘lsa-da, pragmatik jihatdan iltimos hisoblanadi.

Og‘zaki nutqda ma’no ko‘pincha kontekst orqali aniqlanadi.

Misol tariqasida shu gapni keltiramiz ya’ni, "It's cold here." Mazkur gap oddiy xabar, shikoyat, derazani yopish haqidagi bilvosita iltimos ma’nolaridan birini ifodalashi mumkin. Demak, ma’noni to‘g‘ri talqin qilishda kontekst muhim omil hisoblanadi.

Pragmatik kompetensiya so‘zlovchining turli kommunikativ vaziyatlarda mos til vositalaridan foydalanish qobiliyatini anglatadi.

Pragmatik kompetensiya quyidagilarni qamrab oladi, ya’ni:

- murojaat shakllarini tanlash;
- xushmuomalalik strategiyalaridan foydalanish;
- madaniy me’yorlarga rioya qilish;
- kommunikativ maqsadni to‘g‘ri ifodalash.

Masalan, ingliz tilida, "Close the door." buyruq sifatida qabul qilinishi mumkin.

Biroq, "Could you please close the door?" bu esa xushmuomalalik nuqtai nazaridan maqbulroq variant hisoblanadi.

Og‘zaki muloqotda ko‘pincha yashirin ma’no ifodalanadi, buni esa quyidagicha so’zlar orqali ifodalasak bo’ladi: "Do you like the presentation?", "Well, the slides were colorful."

Tahlillar shuni anglatadiki, ingliz tilidagi og‘zaki nutqning lingvistik va pragmatik xususiyatlari o‘zaro uzviy bog‘liqdir. Fonetik reduksiya, so‘zlashuv leksikasi, grammatik soddalashuv va diskurs markerlari muloqotning tabiiyligini ta’minlaydi. Shu bilan birga, nutq aktlari, implikaturalar va kontekstual omillar kommunikativ maqsadlarning samarali amalga oshirilishiga xizmat qiladi.

Zamonaviy ingliz tilini o‘qitishda nafaqat grammatik kompetensiyani, balki pragmatik kompetensiyani ham rivojlantirish muhim hisoblanadi. Chunki real kommunikatsiyada til birliklarining pragmatik qo‘llanilishi muvaffaqiyatli muloqotning asosiy omillaridan biridir.

Ingliz tilidagi og‘zaki nutq fonetik, leksik, grammatik va diskursiv jihatlarga ega bo‘lgan murakkab kommunikativ hodisadir. Uning pragmatik xususiyatlari esa muloqot samaradorligini belgilovchi muhim omillar hisoblanadi. Nutq aktlari, kontekst, implikatura va pragmatik kompetensiya og‘zaki muloqotning asosiy tarkibiy qismlarini tashkil etadi. Shuning uchun ingliz tilini o‘qitish jarayonida lingvistik bilimlar bilan bir qatorda pragmatik ko‘nikmalarni ham rivojlantirish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Cutting J. Pragmatics and Discourse. – London: Routledge, 2020.
2. Crystal D. The Cambridge Encyclopedia of the English Language. – Cambridge: Cambridge University Press, 2019.
3. Richards J. C. Teaching Listening and Speaking. – Cambridge: Cambridge University Press, 2008.
4. Carter R., McCarthy M. Cambridge Grammar of English. – Cambridge: Cambridge University Press, 2006.
5. Thornbury S. How to Teach Speaking. – Harlow: Pearson Education, 2005.

HSR (LONDON),
HOUGHTON STREET REVIEW JOURNAL
ISSN: 2058-5519|Impact factor-15.9
http://houghtonstreetreview.com/index.php/hsr

6. Yule G. Pragmatics. – Oxford: Oxford University Press, 1996.
7. Levinson S. C. Pragmatics. – Cambridge: Cambridge University Press, 1983.
8. Brown G., Yule G. Discourse Analysis. – Cambridge: Cambridge University Press, 1983.
9. Searle J. R. Speech Acts: An Essay in the Philosophy of Language. – Cambridge: Cambridge University Press, 1969.
10. Austin J. L. How to Do Things with Words. – Oxford: Oxford University Press, 1962.